

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAKABILOV BEKZOD NARKUZIYEVICH

QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI SUYUQLIKLI QUDUQLARDA
TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK KUCHLANISH-DEFORMATSIYA
HOLATI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико – математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Mirzakabilov Bekzod Narkuziyevich

Qovushqoq-elastik muhitdagi suyuqlikli quduqlarda to'lqin tarqalishi va
dinamik kuchlanish-deformatsiya holati..... 3

Мирзакабилов Бекзод Наркузиевич

Распространение волн в вязкоупругих скважинах с жидкостью и
динамическое напряженно-деформированное состояние..... 21

Mirzakabilov Bekzod Narkuzievich

Wave propagation in viscoelastic fluid wells and dynamic stress-strain
state..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAKABILOV BEKZOD NARKUZIYEVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI SUYUQLIKLI QUDUQLARDA
TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK KUCHLANISH-DEFORMATSIYA
HOLATI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1169 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro muhandislik-texnologiya institut veb-saytida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar :

Safarov Ismoil Ibroximovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mavlonov To'liqin Mavlonovich

texnika fanlari doktori, professor

Xusanov Baxtiyar Ergashbayevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil 5 aprel kuni soat 11⁰⁰ da Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy. Tel.: (+998-65) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 458 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 14 mart kuni tarqatildi.

(2024 yil 13 dekabr № 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, fizika-matematika fanlari doktori
(DSc), professor

M.Z. Sharipov

Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy darajalar
beruvchi Ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yer osti foydali qazilmalar - neft va gazni qazib olishda quduqning yaqin atrofi va quduq qoplamalarining mustahkamligi holatini baholash hamda mustahkamligini oshirish muammolarini yechishda takomillashgan hisoblash usullarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida burg'ulash o'qi bo'ylab tarqalaladigan to'lqin amplitudasining chuqurlik oshishi bilan susayishini hisobga olib quduq atrofi elastik xossalarni o'rganishda akustik to'lqinlarning tarkalishi nazariyasiga asoslangan to'lqin yuklanish dinamikasini tadqiq qilish va baholashning yangi usullarini amalyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan foydali qazilmalar – neft va gazni qazib olishda quduqlarning mustahkamligini ta'minlash, quduq qoplamalarida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanish va deformatsiyalarni ruxsat etilgan chegarada kamaytirish, zo'riqishlar yigilishinining eng kichik holatda taqsimlanishini ta'minlovchi ishonchli hisoblash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yer osti inshootlari sohasida qo'llaniladigan materiallarning, shu jumladan ko'p qatlamli murakkab fizik xossalarga ega bo'lgan va muhit bilan aloqada bo'lgan kompozit materiallardan yasalgan silindrik qobiqning mustahkamligini tadqiq qilishga takomillashgan samarali usullarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, silindrik ko'rinishdagi suyuqlikli qobiqlarning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib, kuchlanish-deformatsiya holatini aniqlashning takomillashgan va soddalashtirilgan matematik modellarini samarali hisoblash usullarini yaratishga va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish va texnika sohasida turli dinamik yuklanishlar ta'siri ostida bo'lgan to'ldiruvchili qovushqoq-elastiklik silindrik qobiqlarning kuchlanish-deformatsiya holatini topish metodikasi va algoritmini yaratish, hamda amaliyotga tadbiiq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda yer osti maxsus qurilish konstruksiyalarining mustahkamligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun takomillashtirilgan matematik modellarini, samarali hisoblash usullarini ishlab chiqish, maxsus kompozit qoplamali inshootlarga seysmik to'liqinta'siri muammosining ilmiy asoslarini o'rganish, nazariyasini rivojlantirish, ilmiy asosini takomillashtirish, hamda hisoblashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun mazkur yo'nalishlarda maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, yer osti va yer usti inshootlaridagi seysmodinamik jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va bu turdagi murakkab masalalarni sonli usullar bilan yechish, hamda algoritmlarini ishlab

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilabardoshlilikini oshirish, hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishdga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Qovushqoq-elastik muhitdagi suyuqlikli quduqlarda to‘lqintarqalishi va dinamik kuchlanish-deformatsiya holati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy mamlakatlarning ko‘plab ilmiy markazlarida olib borilmoqda, jumladan, AQSh (Nyu-York shtati; Texas universiteti, Ostin, Texas shtati; Ogayo universiteti, Afina, Ogayo shtati Evanston shimoli-sharqiy universiteti, Illinoys shtati; Kornelya universiteti, Itaka.), Eron (Tehron universiteti, Tehron), Rossiya (N.G. Chernishevskiy nomidagi Saratov davlat universiteti, Tomsk politexnika universiteti, Sankt-Peterburg texnika universiteti, Moskva elektron mashinalar instituti (texnika universiteti), Perm davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Fanlar akademiyasining Novosibirsk bo‘limi va boshqalar), Hindiston (R.Gandi nomidagi texnika universiteti, Bxopal; Texnologik universitet, Kanpur), Ukraina (Gidromexanika instituti Ukraina milliy fanlar akademiyasi (UMFA), S.P. Timoshenko nomidagi mexanika instituti UMFA, Kiyev), Belorussiya (Belorus davlat universiteti, Minsk), Braziliya (Rio-de-Janeyro katolik universiteti), Armaniston (Mexanika instituti MFA Armaniston), Angliya (Oksford universiteti), Ozarbayjon (Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasining «Fizika va matematika fanlari»), Qozog‘iston (A.Yassaviy nomidagi Qozoq-turk xalqaro universiteti, Turkiston shahri), kabi davlatlarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu tadqiqot markazlarida inshootlarning deformatsiyalanuvchan xususiyatlarini e‘tiborga olib o‘rganishga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qovushqoq-elastik muhitdagi suyuqlikli quduqlarda to‘lqintarqalishi va dinamik kuchlanish-deformatsiya holati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi taniqli chet el olimlari tomonidan o‘rganilgan: Ilyushin A.A., Brexovskix L.V., Viktorov I.A., Gorshkov A.G., Volmir A.S., Genkin M.D., Shemyakin Ye.I., Guz A.N., Grinchenko V.T., Komissarova G.L., Nigul U.K., Gogoladze V.G, Mitra R., Kolskiy G., Uayt, Axenbax J.D., Shafer B.V., Troyanovskiy I.Ye., Kiyko I.A., Molotkov L.A., Novichkov Y.I., Molotkov L.A., Petrashen G.I., Krauklis P.V., Slepyan L.I., Frolov K.V., Antonov A.N.,

Matveyenko V.P., Shardakov I.N., Starovoytov E.I., Anofrikova N.S., Miker T., Meytsler A., Deyvis R.M., San R.I. va boshqalar.

Bu muammoni yechishda O‘zbekiston olimlari O‘rozboyev M.T., Shirinulov T.Sh., Raxmatulin X.A., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Y.N., Mardonov B.M., Sultanov K.S., Mamatqulov Sh.M., Mirsaidov M.M., Badalov F.B., Xojmetov G.X., Ishanxodjayev A.A., Mavlonov T.M., Abdusattorov A.A., Safarov I.I., Xudaynazarov X.X., Xusanov B.E., Teshayev M.X., Bozorov M.B., Eshmatov X., Yuldashev Sh.S., Abduqodirov S.A., Usarov M.K. va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Ularning ishlarida materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olib, yer osti silindrik va sferik formadagi inshootlarning dinamik xususiyatlarini xarakterlovchi parametrlarni hisoblash usullarini rivojlantirishgan. Yuqoridagilarga qaramay hozirgi vaqtda o‘z yechimini topmagan bir qator muammolar mavjud. Yer osti maxsus inshootlarning dissipativ bir jinsli bo‘lmagan xususiyatlarini hisobga olib dinamik jarayonlarni o‘rganishda deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi usullaridan foydalanish bu sohada amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘pgina muammolarni yechishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishlari Toshkent kimyo – texnologiya institutida 2017 - 2026 yillarda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Matematikaning ilmiy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy-texnikaviy dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan vertikal quduq formasidagi maxsus inshootga noturg‘un va garmonik yuklanish ta’sirida hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiya holatini o‘rganishning matematik modelini qurish, masalalarni yechish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushqoq - elastik fazoda joylashgan silindrik qobiq bilan mustahkamlangan suyuqlikli vertikal quduq o‘qiga burchak ostida tushuvchi bo‘ylama yoki ko‘ndalang to‘lqinlar ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanganlik - deformatsiya holatini topish masalasini matematik qo‘yilishi, yechish usuli va algoritimini ishlab chiqish;

qovushqoq - elastik fazoda joylashgan silindrik qobiq bilan mustahkamlangan suyuqlikli vertikal quduq xos tebranishlarini o‘rganish usullari va algoritimini ishlab chiqish;

quduqlarda seysmik to‘lqinta’siridagi quvur to‘lqinining hosil bo‘lishini o‘rganish usuli va algoritmini ishlab chiqish;

chuqur joylashgan qatlamli quduqqa ko‘ndalang va bo‘ylama to‘lqinlar yuklanganda kuchlanganlik - deformatsiya holati va zo‘riqlishlarga solishtirma baho berish.

Tadqiqotning obekti sifatida vertikal (yoki suyuqlikli) quduq olingan.

Tadqiqotning predmetini uzun fazoviy silindrik ko‘rinishdagi suyuqlikli quduqqa bo‘ylama (yoki ko‘ndalang) to‘lqintushishi yoki ta’siri va difraksiyasi natijasida qovushqoq-elastik quduq qoplamalaridagi dinamik kuchlanishlar-deformatsiya holatini aniqlash nazariyasi bo‘yicha yechish usullarini rivojlantirish

tashkil etadi.

Tadqiqot usullari Tadqiqot jarayonida qovushqoq elastiklik nazariyasining ko'chishlar orqali ifodalangan operator koeffisientli Lamé tenglamasi orqali olingan xususiy hosilali integro–differensial tenglamalarini yechish uchun deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va matematik fizikaning maxsus funksiyalari orqali yechimini topish, Myuller va Furyening integral almashtirishlari, Gauss usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushqoq–elastik suyuqlikli mustahkamlangan va mustahkamlanmagan quduqda xos to'liq tarqalishi masalasi to'liq dinamikasining usullari asosida xos chastotalari, to'liq uzunligi, faza tezligi va guruh tezliklari munosabatlarini ifodalovchi kompleks parametrli dispersion tenglama olingan va uni sonli yechish algoritmi ishlab chiqilgan;

qovushqoq–elastik muhitdagi mustahkamlangan va mustahkamlanmagan quduqqa garmonik to'liqlar yuklanganda, hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holatini topish metodikasi va algoritmi qovushqoq–elastiklik nazariyasining usullari asosida ishlab chiqilgan;

qovushqoq–elastik suyuqlikli quduqlarda klassik to'liqlardan tashqari quvur va suyuqlik to'liqlari mavjud bo'lishi kompleks faza tezligi va chastotalarni limit qiymatlarini hisoblash asosida topilgan;

qovushqoq–elastik suyuqlikli quduqlarga yuklanuvchi garmonik to'liqlar yuklanish burchagiga, quduq qoplamasi va muhit bikrlilari nisbatiga, to'liq uzunligiga va muhitning reologik parametrlariga bog'liq bo'lishi sonli hisoblashlar asosida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'p qatlamli mustahkamlangan suyuqlikli quduqlarda garmonik (uzun va qisqa) to'liqintushishi natijasida yuzaga keladigan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini topish va quduqlarning mustahkamligini hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan;

ko'p qatlamli mustahkamlangan suyuqlikli quduqlar uchun spektral masalada qo'yildi va chekli sondagi kompleks rezonans chastotalarini topish yechilgan;

ko'p qatlamli suyuqlikli quduqlar uchun limit quvur va gidroto'liqlar mavjud bo'lishi hamda ularni so'nish qonuniyatlari topilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy masalalarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik munosabatlarning va tenglamalarning analitik metodlar bilan olinganligi, hamda sonli hisoblashlar yuqori aniqlikdagi sonli usullardan foydalanib olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qovushqoq–elastik muhitda joylashgan suyuqlikli mustahkamlangan quduqlarda xos to'liq tarqalishi va so'nishini o'rganish natijasida quvur va gidroto'liqlarni hamda ular orasida faza to'liqlarni mavjudligini topilishi, ularning geometrik va fizik–mexanik parametrlarga bog'liq o'zgarishini baholanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati qovushqoq–elastik muhitda joylashgan suyuqlikli mustahkamlangan aniq parametrlarga ega quduqlarda xos

to'ldinchastotalarini topilishi, quduq va uni o'rab turuvchi muhitda hosil bo'ladigan rezonans xodisalarini fizik-mexanik parametrlarga bog'liq o'zgarishini baholanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dinamik kuchlar ta'sirida elastik va qovushqoq-elastik tekisliklarda joylashgan silindrik qobiqlarning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usullari tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

geofizikada to'lqin tarqalish masalalarini yechish uchun ishlab chiqilgan yangi optimal algoritmlar va dasturiy vositalaridan hamda silindrik qobiqsimon bosim ostida ishlovchi quvurlar bilan muhitning o'zaro ta'sirini hisobga olish masalalarini yechish usullaridan Qarshi davlat universiteti 2018-2020-yillarda bajarilgan OT-Atex-2018-340 raqamli "Ikki tezlikli muhit dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq etish" fundamental loyahasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 10-oktabrdagi № 04/3300 -sonli ma'lumotnomasi). Natijada qovushqoq-elastik suyuqlikli quvurlar tebranishining rezonans amplituda sohalari oldindan baholash imkonini bergan;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan suyuqlikli quduqlarning dinamik kuchlar ta'siridagi tebranish va difraksiya masalalarini sonli yechish usullaridan Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2016-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2024-yil 13-noyabrdagi № 1/01-2896-sonli ma'lumotnomasi). Natijada silindrik konstruksiyalarning dinamik holatini baholashda sistemada hosil bo'ladigan energiya dissipatsiyasini hisobga olish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 9 ta xalqaro anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 37 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shu jumladan, 2 tasi xorijiy va 8 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan,

ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Qovushqoq-elastik muhitdagi suyuqlikli quduqlarda to'lqin tarqalishini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili va masalaning qo'yilishi**» deb nomlangan birinchi bobida, xos to'lqinva garmonik to'lqinlar ta'sirida chuqur o'rnatilgan ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan quduqlarning kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan, hamda adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan. Bu bob uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafi "Foydali qazilmalar quduqlarga to'lqinlarning ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili" deb nomlanadi. Unda seysmik zonada gruntli muhitda joylashgan silindrsimon qobiqlar, quvur o'tkazgichlarining tuzilmalari, metro tunnellari, gaz omborlari va boshqa yer osti inshootlarini zilzilabardoshligini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili qisqacha keltirilgan. Bu bobning ikkinchi paragrafi "Ko'p qatlamli qovushqoq-elastiklik muhitlardan tashkil topgan to'lqino'tkazgichlarga to'lqintarqalishini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili" deb nomlangan. Seysmik hududlarda quduqlarni loyihalashning asosiy maqsadi zilzila zo'riqishlariga bardosh beradigan, xavfsiz va tejamkor bo'lgan va shu bilan birga boshqa tabiiy va texnogen xavf-xatarlarga qarshi kurashda qo'llaniladigan yechimlarga mos keladigan konstruksion yechimlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Uchinchi paragraf "Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan bo'lakli bir jinsli suyuqlikli silindrik jismdagi to'lqinlarning difraksiyasini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili" deb nomlanadi. Unda seysmik yuklanishlarning yupqa devorli tunnellarni hisoblashga bag'ishlangan adabiyotlar tahlil etilgan. Ularni hisoblashda fazoviy holatini hisobga olish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Ko'p qatlamli quduq qoplamalarida so'nuvchi to'lqinlarning tarqalishi va to'lqiny uklanishi masalalarining qo'yilishi va yechish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida ko'p qatlamli quduq qoplamalarida so'nuvchi to'lqinlarni tarqalish va to'lqinyuklanishi masalalarining qo'yilishi va yechish usullari keltirilgan. Seysmik to'lqinta'siridagi qovushqoq elastik muhitdagi mustahkamlangan quduqning kuchlanganlik – deformatsiya holatini topish va tahlil qilish muammosining qo'yilishi ko'rib chiqilgan. Quduqni qoplamasi yupqa silindrik qobiqlar uchun Krixgof-Lyav gipotezasi yoki Timoshenko S.P. gipotezasi o'rinli bo'ladi. Qobiqning harakat differensial tenglamasi, qalin silindrlar uchun deformatsiyalanuvchan jismlar mexanikasining qovushqoq-elastik nazariyasining tenglamalaridan foydalanilgan. Bu holda ko'p qatlamli qobiq (yoki qalin devorli silindr) lardan tashkil topgan mexanik sistemaning harakat tenglamalari quyidagicha bo'ladi


$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j) \text{grad div } \vec{u}_j - \tilde{\mu} \text{rotrot } \vec{u}_j + \vec{b}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}_j}{\partial t^2}, (j=1, 2, \dots, N). \quad (1)$$

Agar mexanik sistema silindrik qobiqlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakat differensial tenglamasi quyidagicha bo'ladi

$$L\tilde{E}\tilde{u} = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h_0} \tilde{p} + \rho_0 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \tilde{u}}{\partial t^2} \right), \quad (k=1,3\dots N-1) \quad (2)$$

$$\Delta\varphi_0 - \frac{1}{c_\infty^2} \ddot{\varphi}_0 = 0. \quad (3)$$

Agar silindrik qatlam qovushqoq suyuqlik bilan to'ldirilgan bo'lsa, u holda Nave - Stoks tenglamasidan foydalaniladi.



1-rasm. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan ko'p qatlamli suyuqlik quduqqa to'liqin yuklanishining hisob sxemasi

Agar silindrik inshoot qatlamlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakat tenglamalari (2) ko'rinishda bo'ladi. Quyidagicha kontakt va chegaraviy shartlar qo'yiladi:

1. Agar silindrik jism qatlamlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakat tenglamalari (1) ko'rinishda bo'ladi. Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik yoki sirpanuvchanlik sharti qo'yiladi

$$r = a_k : \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \quad \sigma_{rz k} = \sigma_{rz(k+1)}; \\ u_k = u_{k+1}; \quad v_k = v_{k+1}; \quad w_k = w_{k+1}. \quad (4)$$

2. Qatlamlar orasida sirpanuvchanlik sharti (qatlamlar orasida qarshilik bo'lmasa) qo'yiladi

$$r = a_k : \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{rz k} = 0; \\ \sigma_{r\theta(k+1)} = \sigma_{rz(k+1)} = 0; \quad w_k = w_{k+1}. \quad (5)$$

3. Agar $r = a_1$ birinchi qatlam suyuqliksiz yoki to'ldiruvchisiz bo'lsa, u holda kuchlanishlardan ozod bo'lish sharti qo'yiladi

$$r = a_k : \sigma_{rrN} = 0; \quad \sigma_{r\theta N} = 0; \quad \sigma_{rzN} = 0. \quad (6)$$

4. Qatlamlar orasida massasiz element qo'yilgan bo'lsa, u holda chegaraviy (kontakt) sharti tekis deformatsiya holati masalasi uchun quyidagicha bo'ladi

$$r = a_k : \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \\ \sigma_{rrk} = \bar{k}_r (u_{rk} - u_{r(k+1)}); \\ \sigma_{r\theta k} = \bar{k}_\theta (u_{\theta k} - u_{\theta(k+1)}). \quad (7)$$

Agar inshootdan radial koordinata cheksizlikka intilsa, u holda bo'ylama va ko'ndalang to'liqinpotensial Zommerfeldning yutilish shartini qanoatlantiradi

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\varphi = \text{const} , \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} - ik\varphi \right) = 0$$

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\psi = \text{const} , \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} - ik_2\psi \right) = 0 \quad (8)$$

muhitda tarqalayotgan silindrik to'liqlar tekis deformatsiya holati uchun quyidagicha bo'ladi

$$\varphi_N^{(p)} = \varphi_0 i\pi \sum_{n=1}^{\infty} [(-1)^n E_n J_n(\alpha_N r) H_n^{(1)}(\alpha_N z)] \cos n\theta e^{-i\omega t} , \quad (8.1)$$

to'ldiruvchili silindrik qobiq va uni o'rab turuvchi muhitning xususiy hosilali differensial tenglamasini ko'chish vektorini bo'ylama va ko'ndalang to'liqpotensiallari orqali ifodalaymiz

$$\vec{u}_j = \text{grad}\phi_j + \text{rot}\vec{\psi}_j , \text{div}\vec{\psi} = 0 , \quad (9)$$

asosiy masalalar elastiklik nazariyasining tekis deformatsiya holati masalasiga olib kelinadi. Shuning uchun $\vec{\psi}_j(\psi_{zj}, 0, 0)$ bo'ylama va ko'ndalang to'liqpotensiallari quyidagi integro-differensial tenglamalarini qanoatlantiradi

$$\Gamma_{\lambda\mu\kappa} \nabla^2 \varphi_k - \frac{1}{c_{p0k}^2} \frac{\partial^2 \varphi_k}{\partial t^2} = 0 ; \quad \Gamma_{\mu\kappa} \nabla^2 \psi_z - \frac{1}{c_{s0k}^2} \frac{\partial^2 \psi_z}{\partial t^2} = 0 ; \quad (10)$$

$$\phi_j = \sum_{n=0}^{\infty} [A_{nj} H_n^{(1)}(\alpha_j r) + A'_{nj} H_n^{(2)}(\alpha_j r)] \cos n\theta e^{-i\omega t} ;$$

$$\psi_j = \sum_{n=0}^{\infty} [B_{nj} H_n^{(1)}(\beta_j r) + B'_{nj} H_n^{(2)}(\beta_j r)] \sin n\theta e^{-i\omega t} ; \quad j = 1, 2, \dots, N-1$$

$$\phi_N = \sum_{n=0}^{\infty} [C_{nN} H_n^{(1)}(\alpha_N r) + D_{nN} H_n^{(2)}(\alpha_N r)] \cos n\theta e^{-i\omega t} , \quad (11)$$

$$\psi_N = \sum_{n=0}^{\infty} [M_{nN} H_n^{(1)}(\beta_N r) + L_{nN} H_n^{(2)}(\beta_N r)] \sin n\theta e^{-i\omega t} ,$$

$$\phi_0 = \sum_{n=0}^{\infty} [K_{n0} J_n(\alpha_0 r) + K'_{n0} N_n(\alpha_0 r)] \cos n\theta e^{-i\omega t} ,$$

Bunda n -butun son; ω -erkin tebranish masalasi o'rganilganda kompleks chastota, majburiy tebranish o'rganilganda haqiqiy kattalik deb olinadi.

Bunda $A_{nj}, A'_{nj}, B_{nj}, B'_{nj}, C_{nj}, D_{nj}, L_{nN}, M_{nN}, K_{nN}$ va K'_{nN} – ixtiyoriy o'zgarma kattaliklar, bo'lib chegaraviy shartlardan topiladi; $H_n^{(1)}(\alpha_j r)$ va $H_n^{(2)}(\alpha_j r)$ – mos ravishda Bessel va Xankel funksiyalari $H_n^{(1),(2)}(\alpha r) = J_n(\alpha r) \pm iN_n(\alpha r)$. Agar muhitda tekis formadagi to'liqintarqalsa, u holda kuchlanish amplitudasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Ixtiyoriy o'zgarmlarni topish uchun chegaraviy shartlar (4) - (7) dan foydalansak bir jinsli bo'lmagan kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz

$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)] \{q\} = \{P_1\} , \quad (12)$$

bunda $\{q\}$ -vektor stolbets bo'lib ixtiyoriy o'zgarmlardan tashkil topgan; $\{R\}$ -tashqi tushadigan to'liqinta'siridagi vektor; $[C_1]$ - kvadrat matritsa, elementlari Bessel

va Xankel funksiyalaridan tashkil topgan. Kontur kuchlanishi $\sigma_{\theta\theta}$ ni hisoblash uchun

$$\sigma_{\theta\theta}|_{r=0} = (\text{Re} + iJ_m) e^{-i\omega t} = \sqrt{\text{Re}^2 + J_m^2} e^{-i(\omega t - \gamma)}, \gamma = \text{arctg} \frac{J_m}{\text{Re}} \quad (13)$$

Shunday qilib ikkinchi bobda garmonik to'liqinyuklanishi (va difraksiyasi) masalalarini yechishda ko'chishlar orqali ifodalangan Lamé tenglamasidan foydalanib, ko'chish potentsiallari orqali ifodalangan xususiy hosilali integro - differensial tenglamalar sistemasi olindi va analitik yechimni Gauss, Laplas va maxsus funksiyalar usullari asosida olish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Qovushqoq – elastiklik muhitdagi ko'p qatlamli silindrik quduqlarni xos tebranishlari va to'liqlarni tarqalishi**» deb nomlangan uchinchi bobida qovushqoq - elastik muhitda joylashgan (suyuqlikli) silindrik quduqlarlarni xos tebranishlari va to'liqlarni tarqalishi masalasi yechiladi. Birinchi masala sifatida qovushqoq - elastik muhitda joylashgan silindrik bo'shliqning xos tebranishlari masalasini ko'ramiz. Bo'shliq chegarasida kuchlanishlarni nol bo'lish sharti qo'yiladi. Agar kontakt va chegaraviy shartdan foydalanilsa, u holda kompleks koeffitsiyentli bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz. Bu bir jinsli tenglamalar sistemasi yechimga ega bo'lishi uchun, uning noma'lumlar oldidagi koeffitsiyentlardan tuzilgan asosiy aniqlovchi nolga teng bo'lishi kerak. Asosiy aniqlovchining elementlari kompleks parametr ω ning funksiyasi hisoblanadi. Faraz qilaylik qovushqoq elastiklik muhitda radiusi $r=1$ bo'lgan silindrik bo'shliq berilgan bo'lsin. U holda bo'shliq sirtida normal ($\sigma_{rr} = 0$) va urinma kuchlanishlarni ($\sigma_{r\theta} = \sigma_{rz} = 0$) nolga teng bo'lish sharti qo'yiladi. Bu shartdan foydalansak quyidagicha dispersion tenglamani olamiz:

$$\|c_{ij}\| = 0, i, j = 1, 2, 3. \quad (14)$$

Bunda

$$\begin{aligned} c_{11} &= (n^2 - 1 - \Omega^2 + \gamma_p^2) H_n^{(1)}(\alpha), \\ c_{12} &= (n^2 - 1 - \beta^2) H_n^{(1)}(\beta), \\ c_{13} &= 2(n^2 - 1) [\beta H_{n-1}^{(1)}(\beta) - n H_n^{(1)}(\beta)] - \beta^2 H_n^{(1)}(\beta), \\ c_{21} &= \alpha H_{n-1}^{(1)}(\alpha) - (n+1) H_n^{(1)}(\alpha), \\ c_{22} &= \beta H_{n-1}^{(1)}(\beta) - (n+1) H_n^{(1)}(\beta), \\ c_{23} &= (2n^2 + n - \gamma_p^2) H_n^{(1)}(\beta) - 2\beta H_{n-1}^{(1)}(\beta), \\ c_{31} &= \alpha H_{n-1}^{(1)}(\alpha) - n H_n^{(1)}(\alpha), \\ c_{32} &= (1 - \Omega^2 / 2\gamma_p^2) (H_{n-1}^{(1)}(\beta) - n H_n^{(1)}(\beta)), \\ c_{33} &= n^2 H_n^{(1)}(\beta). \end{aligned}$$

Bu (14) tenglama $n=1, 2, 3, \dots$ har bir qiymatida o'lchamsiz chastota Ω va to'liqintarqalish doimiysi γ_p va Puasson koeffitsiyenti orasidagi munosabatni ifodalaydi. Determinant ko'rinishida berilgan dispersion tenglama (14) n -chi tartibli Xankel funksiyasidan tashkil topgan. Maxsus funksiyalar (Xankel funksiyasi) kompleks argumentli bo'lib murakkab funksiyani tashkil etadi.

1-jadval.

Kompleks chastota haqiqiy qismining h/R ga bog'liq o'zgarishi

h/R	Xos sonlar (kompleks chastotaning haqiqiy qismi)				
	n=1	n=2	n=3	n=4	n=5
1	0,07906	0,65168	1,50937	3,46217	5,43208
2	0,07472	0,43827	1,32169	2,86027	4,01843
3	0,06763	0,32809	0,97891	2,37612	4,21305
4	0,07672	0,23245	0,78271	1,58961	3,58168
5	0,12445	0,292026	0,53272	1,47858	3,30664

Kompleks parametrli chastota tenglamasi (14) Myuller usuli yordamida yechiladi. Bu transcendent tenglama (14) ni ildizlari ikki qismdan iborat. Haqiqiy ($\text{Re } \Omega$) va mavhum ($\text{Im } \Omega$) qismlar Kompleks chastotaning haqiqiy qismi mexanik sistemani tebranishlar chastotasini ifoda qilsa, mavhum qismi esa dempfirlash koeffitsiyentini ifodalay ekan (so'ndirish koeffitsiyenti). Hisoblash natijalari $n \geq 0$ ($\nu_1 = 0,25$) 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi natijalarni tahlilidan n ning ortib borishi bilan kompleks chastotaning haqiqiy va mavhum qismlari ham ortib borar ekan.

2-jadval

Natijalarni solishtirish ($\nu = 0,25$)

№ n	Dissertatsiya natijalari	Pao va Mao	Bnron va Parnes
0	0,44741-0.44420 i	0.44647-0.44127 i	0.4464-0.4410 i
1	1,09272-0,77653 i	1.09272-0.7653 i	1.0929-0.441 i
2	1,907554-0,89782 i	1.90754-0.8978 i	1.9076-0.897 i
3	2,75652-0,99151	2.75652-0.9915 i	
4	3,63132-1,06662 i	3.63132-1.0666 i	
5	4.52440-1.13140 i	4.52440-1.1314 i	

Chastota tenglamasi (14) faqat Puasson koeffitsiyentiga (ν) bog'liq bo'lar ekan. Puasson koeffitsiyentining qiymati $0 \leq \nu \leq 0,4$ oralig'ida o'zgarish topildi. Hisoblash jarayonida Bessel va Xankelning funksiyasining 5-6 hadi hisoblandi. Hisoblash aniqligi $10^{-8} - 10^{-6}$ bo'lganda to'xtatildi. Yadro relaksatsiyasi sifatida uch parametrli Rjanitsin – Koltunov yadrosi olindi ($A = 0,048; \beta = 0,05; \alpha = 0,1$)

$$R(t) = \frac{Ae^{-\beta t}}{t^{1-\alpha}}, \quad (15)$$

bunda A, α, β - yadro parametrlari. Natijalarni solishtirish ($\nu = 0,25$) 2-jadvalda keltirilgan. Agar muhitda joylashgan ko'p (k - chi) qatlamli silindrik qobiqlar ko'chishi Bessel va Neymanning n -chi tartibli kompleks argumentli funksiyalari orqali ifodalanadi.

$$u_{rk} = \sum_{n=0}^{\infty} \left\{ \gamma_k \left[A_{1kn} J'_n(\gamma_{1k} r) + A_{2kn} Y'_n(\gamma_{1k} r) \right] + \frac{n}{r} \left[A_{3kn} J_n(\gamma_{2k} r) + A_{4kn} Y_n(\gamma_{2k} r) \right] - \right. \\ \left. - \frac{r\gamma_{2k}}{\mu_{2k}} \left[A_{5kn} J'_n(\gamma_{2k} r) + A_{6kn} Y'_n(\gamma_{2k} r) \right] \right\} \cos n\phi e^{i(-\omega t + \gamma_p z)} \quad (16)$$

$$u_{\phi k} = - \sum_{n=0}^{\infty} \frac{n}{r} \left\{ \gamma_k \left[A_{1kn} J_n(\gamma_{1k} r) + A_{2kn} Y_n(\gamma_{1k} r) \right] + \frac{r\gamma_{2k}}{n} \left[A_{3kn} J'_n(\gamma_{2k} r) + A_{4kn} Y'_n(\gamma_{2k} r) \right] - \right. \\ \left. - \frac{r}{\mu_{2k}} \left[A_{5kn} J_n(\gamma_{2k} r) + A_{6kn} Y_n(\gamma_{2k} r) \right] \right\} \sin n\phi e^{i(-\omega t + \gamma_p z)};$$


$$u_{zk} = \sum_{n=0}^{\infty} \left\{ \gamma_k \left[A_{1kn} J_n(\gamma_{1k} r) + A_{2kn} Y_n(\gamma_{1k} r) \right] + \frac{\gamma_{2k}^2}{n} \left[A_{5kn} J_n(\gamma_{2k} r) + A_{6kn} Y_n(\gamma_{2k} r) \right] \right\} \cos n\phi e^{i(-\omega t + \gamma_p z)},$$

bunda

$$\gamma_{1k}^2 = \bar{\mu}_{1k}^2 - \gamma^2; \quad \bar{\mu}_{1k} = \frac{\omega}{a_{1k} \Gamma_k}; \quad \gamma_{2k}^2 = \bar{\mu}_{2k}^2 - \gamma^2;$$

$$\bar{\mu}_{2k} = \omega / c_{sk} \Gamma_{2k}; \quad c_{sk}^2 = \frac{\bar{\mu}_k}{\rho_k}; \quad \gamma = m\pi / l, \quad (m = 1, 2, \dots) \quad (k = 1, 2, 3)$$

Ixtiyoriy o'zgarishlarni topish uchun chegaraviy shartlardan foydalanamiz. U holda ixtiyoriy o'zgarishlarni topish uchun kompleks koeffitsiyentli bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz.



2-rasm. Chastotani kompleks to'liq soniga bog'liq o'zgarishi (n=0)

$$v_1 = 0, 2; v_0 = 0, 25; \rho^* = \frac{\rho_1}{\rho_0} = 1, 10; \mu = \frac{\mu_1}{\mu_2} = 0, 31; \gamma = \frac{c_{p1}}{c_{p2}} = 0, 7.$$


Bu sistema yechimga ega bo'lishi uchun, uning asosiy aniqlovchisi nolga teng bo'lishi kerak

$$\Delta(C, \omega, \gamma_p, \lambda) = 0. \quad (17)$$

Fazoviy $C = C_R + iC_I$ va guruh tezliklarni $V = V_R + iV_I$ to'liqsoni γ_p -ga bog'liq o'zgarishini topish uchun Myuller usuli asosida topiladi. Agar silindrik qatlam cheksiz muhitda joylashgan bo'lsa, sonli natijalar quyidagi berilganlar uchun olinadi.

Sonli natijalar quyidagi 2 va 3- rasmlarda chastotani kompleks to'liqsoniga bog'liq $n = 0$ va $n = 1$ uchun o'zgarishi ko'rinib turibdiki chastotalarning to'liqsoni

haqiqiy va mavhum qismiga bog‘liq o‘zgarishi monoton bo‘lishi topildi.



3-rasm. Chastotani kompleks to‘lqin soniga bog‘liq o‘zgarishi (n=1)

$$v_1 = 0,2; v_0 = 0,25; \rho^* = \frac{\rho_1}{\rho_0} = 1,10; \mu = \frac{\mu_1}{\mu_2} = 0,31; \gamma = \frac{c_{p1}}{c_{p2}} = 0,7$$

Faraz qilaylik qovushqoq - elastiklik cheksiz muhitda $r > a$ joylashgan quduq ($r \leq a, -\infty < z < \infty$) suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsin (a -quduq radiusi, z -quduqning bo‘ylama o‘qi). Quyidagi belgilashlarni kiritamiz c_{p2} va c_{s2} mos ravishda quduqqa tarqaladigan bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqintezliklari, c_{p3} va c_{s3} mos ravishda quduqni o‘rab turgan muhitga tarqaladigan bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqintezliklari, c_1 - tovush to‘lqini tezligi, ρ_1 - suyuqlik zichligi. Oldingi boblarda keltirilganidek bu bobda ham harakat tenglamasi ko‘chish potentsiallari orqali yechiladi. Bular quduq qatlami uchun bo‘ylama φ_2 va ko‘ndalang ψ_2 , muhit uchun ham φ_3 va ψ_3 potentsiallar va φ_1 - bo‘ylama to‘lqinpotensial suyuqlik uchun. U holda harakat differensial tenglamalari ko‘chish potentsiallarda quyidagicha bo‘ladi

$$\frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \varphi_j}{\partial r} + \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial z^2} - \int_0^t R_{pj}(t-\tau) \nabla^2 \varphi_j(r,\tau) d\tau = \frac{1}{c_{pj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2} \quad (j=1,2,3),$$

$$\frac{\partial^2 \psi_k}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi_k}{\partial r} + \frac{\partial^2 \psi_k}{\partial z^2} - \int_0^t R_{sk}(t-\tau) \nabla^2 \psi_k(r,\tau) d\tau = \frac{1}{c_{sj}^2} \frac{\partial^2 \psi_k}{\partial t^2} \quad (k=2,3), \quad (18)$$

$$\nabla^2 = \frac{\partial^2}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} + \frac{\partial^2}{\partial z^2}.$$

Bunda $R_{pj}(t-\tau), R_{sj}(t-\tau)$ - yadro relaksatsiyasi. Muhit va quduqning kontakt chegarasida ko‘chish va kuchlanishlarni tenglik yoki uzluksizlik sharti qo‘yiladi:

$$u_{r2} \Big|_{r=r_2} = u_{r3} \Big|_{r=r_2}, u_{z2} \Big|_{r=r_2} = u_{z3} \Big|_{r=r_2}, \tau_{rz2} \Big|_{r=r_2} = \tau_{rz3} \Big|_{r=r_2}, \sigma_{rr2} \Big|_{r=r_2} = \sigma_{rr3} \Big|_{r=r_2}, \quad (19)$$

$$u_{r1} \Big|_{r=r_1} = \frac{\partial u_{r2}}{\partial t} \Big|_{r=r_1}, u_{z1} \Big|_{r=r_2} = \frac{\partial u_{z2}}{\partial t} \Big|_{r=r_2}, \tau_{rz1} \Big|_{r=r_1} = 0.$$

Yuqorida keltirilgan integro-differensial tenglamani soddalashtirish maqsadida ‘muzlatish’ usulini qo‘llaymiz. Keyinchalik (18) munosabatni quyidagi ko‘rinishga almashtirib olamiz:

